



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th August, 2025

SIRKA KISLOTASINING YUQORI KONSENTRATSIYASI TA'SIRIDA KUYISHIDA YO'G'ON ICHAKDAGI MORFOLOGIK O'ZGARISHLARNI ANIQLASH

Boboev Shuxrat Raximovich

Respublika ixtisoslashtirilgan Onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot
markazi Buxoro filiali

Sirka kislotasi bilan zaharlanish nafaqat O'zbekiston Respublikasida, balki MDH mamlakatlarida ham keng tarqalgan maishiy zaharlanish turlaridan biridir [1,4]. Bu uning keng miqyosda iste'molda mavjudligi va uy xo'jaligida doimiy ishlatalishi bilan bog'liq. Sirka kislotasi boshqa kuydiruvchi zaharlardan sezilarli darajada farq qiladi, chunki u nafaqat koagulyatsion nekroz tipidagi mahalliy kuydiruvchi ta'sirga ega, balki eritrotsitlar gemolizi, toksik koagulopatiya rivojlanishi natijasida yuzaga keladigan DVS – sindromi, aniq rezorbtiv - gemato nefro- va gepatotoksik ta'sirga ega [1;2].

Tadqiqot maqsadi: Oq zotsiz kalamushlar oshqozon-ichak traktining sirka kislotasi bilan kimyoviy kuyishida yo'g'on ichak devoridagi morfometrik o'zgarishlarni aniqlash, kimyoviy moddaning no'jo'ya ta'sirinini kamaytirish maqsadida uzum danagi moyi yordamida korreksianing biologik usulini qo'llash.

Tadqiqot materiali va usullari. Eksperimental tadqiqot uchun har ikkala jinsdag 3 oylik 150 ta oq zotsiz kalamushlardan foydalanildi. Kalamushlar 4 ta katta asosiy guruhga bo'lindi ($n=150$): I - nazorat guruhidagi ($n=30$); II - guruh – eksperimental yuqori (70 %li) konsentratsiyali sirka kislotasi yordamida oshqozon ichak traktida kuyish keltirib chiqarilgan o'tkir davrdagi oq zotsiz kalamushlar ($n=40$): III- guruh – eksperimental yuqori (70 %li) konsentratsiyali sirka kislotasi yordamida oshqozon ichak traktida kuyish keltirib chiqarilgan surunkali davrdagi oq zotsiz kalamushlar ($n=40$): IV- guruh – eksperimental oshqozon ichak traktida kuyish keltirib chiqarilgan va uzum danagi yog'i bilan davolangan kalamushlar ($n=40$):



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th August, 2025

Tadqiqot natijalari. 70 % li sirka kislotasi bilan kimyoviy kuyishda yo`g`on ichakdagi morfologik o`zgarishlar kam o`rganilganligi sababli tajriba sharoitida kimyoviy kuyishni chaqirtirilib, uning natijasidagi yo`g`on ichakning morfologik xususiyatlari o`rganildi va tahlil qilindi.

I - nazorat guruhidagi (n=30) Nazorat guruhidagi oq zotsiz kalamushlarning autopsiyadan keyin olingan yo`g`on ichak, ko`richak, chanbar ichak, to`g`ri ichak to`qimalarining morfologik va morfometrik tekshirilganda, ichakning normal 4 qatlamlili tuzilishga ega ekanligi aniqlandi. Shilliq qavat bir qatlamlili prizmatik epiteliy bilan qoplangan bo`lib, ko`ruv maydonida, baland ustunsimon epiteliotsitlari, qadahsimon va ko`p miqdorda differensiatsiyalanmagan hujayralar ko`rindi.

II - guruh –70 % li sirka kislotasi yordamida oshqozon ichak traktida kuyish keltirib chiqarilgan o`tkir davrdagi oq zotsiz kalamushlar (n=40) da quyidagi morfologik o`zgarishlar aniqlandi.

Baland ustunsimon epiteliotsitlarning va qadahsimon hujayralarning nobud bo`lishi kuzatildi. Shilliq qavat xususiy plastinkasidagi kriptalarni o`rab oluvchi devor qalinligi nazorat guruhida 3,1-5,3 mkm ni tashkil qilgan bo`lsa, tajriba guruhida bu ko`rsatkich 4,2-6,9 mkmgacha oshganligi kuzatildi.

III - guruh –70 % li sirka kislotasi yordamida oshqozon ichak traktida kuyish keltirib chiqarilgan surunkali davrdagi oq zotsiz kalamushlar (n=40). Kuyishdan 14, 21 va 30 kun o`tgach histologik namunalardan kolon va rektum devorining barcha qatlamlarida (epiteliy, lamina propria, submukoza, muskularis va seroza) yuzaga kelgan o`zgarishlarni aniqladik.

IV- guruh – eksperimental oshqozon ichak traktida kuyish keltirib chiqarilgan va uzum danagi yog`i bilan davolangan kalamushlar (n=40). Shilliq qavatning mushak qavati 2 qatlamlili tuzilishga ega bo`lsa-da, mushak hujayralari degradatsiya belgilarini ko`rsatgan. Shilliq osti qatlami yallig`lanish belgilarini ko`rsatdi va bo`shashgan tolali biriktiruvchi to`qima, yog` hujayralari hamda ko`p miqdorda fibroblastlar bilan to`ldirilgan.



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th August, 2025

Xulosalar

3 oylik oq zotsiz kalamushlarning oshqozon-ichak traktiga yuqori konsentrasiyali sirka kislotasi yuborilishi o'tkir davrda (birinchi 72 soat ichida) yo'g'on ichak devorining sezilarli morfologik buzilishlariga olib keldi. Epiteliy nekrozi, submukozal shish, qon quyilishi va yallig'lanish jarayonlari asosiy patologik belgilar sifatida namoyon bo'ldi. Bu model orqali kuyish gastroenterologiyasi sohasida patologik jarayonlarning ilk bosqichlarini chuqr o'rganish mumkin.